

## TURIZM SOHASIDA TRANSPORT HIZMATLARI

*Jo'rabayeva Fotima Zafarjon qizi*  
*Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi*  
*Andijon Dvalat Universiteti Ijtimoiy-Iqtisodiyot*  
*Fakulteti 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Turistik mahsulotning asosiy tarkibiy qismiga kiruvchi transport xizmatlari jami turizm xizmatlarining 27 % tashkil etadi. Bundan ko'rinib turibdiki, transport xizmatlari ushbu sohaning muhim va ajralmas tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada turizmda transport xizmatlarining o'rni, vazifasi va uni yanada takomillashtirish yo'llari ko'rib chiqildi.

**Kalit so'zlar:** Lokomativ, yer usti, transport tarmoqlari, xalqaro tashkilotlar, Temir yo'l.

Transport xizmatlarining barcha turlari yagona maqsadni ya'ni tashish xizmatlarini ko'rsatishda, sayohatchilarning ehtiyojlarini to'laqonli qonldirishni ko'zlaydi. Mamlakatga tashrif buyurgan turistlarga transport xizmatini ko'rsatish, sayyohlar va ularning yuklarini bir joydan ikkinchi joyga tez va qulay sharoitlarda tashish uchun mo'ljallangan xizmatlar majmuyi hisoblanib, hozirgi kunda transport xizmatlarini ko'rsatish qonun hujjatlari bilan mustahkamlanib qo'yilgan. Ushbu hujjatlar quyidagilar:

1. Turli xalqaro tashkilotlar tomonidan
2. Mamlakatning milliy qonunchilik doirasida
3. Yuk va yo'lovchi tashuvchilarning ichki qoidalari

So'ngi yillarda, mamalakatga tashrif buyurgan turistlarni xar xil turdagi transport vositalarida tashish masalan, havo, yer usti, suv transporti orqali amalga oshiriladi. Sayyohlarga transport xizmatini tashkil qilish uchun transport turlarining ommaviyligi yoki aholini talab darajasi, mamlakatning geografik o'rni, iqlim sharoitlariga va iqtisodiy rivojlanish darajasiga, milliy an'alariga, fuqarolarning ijtimoiy holatiga va albatta turmush darajasiga bog'liq bo'ladi.

O'tgan davr mobaynida, mamlakatimizda ham turizm salohiyatini yaxshilash borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Turistlar uchun qulay sharoit yaratish hamda O'zbekistining tashrif uchun xavfsiz mamlakat sifatida obro'yini shakillantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ko'rib chiqildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 5-yanvardagi " O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PF 5611-sonli farmoniga muvofiq transport va turizm obyektlarida jamoat xavfsizligini ta'minlashning sifat jihatidan yangi bosqichga o'tishi maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi va turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi

2. O'zbekisto Respublikasi ichki ishkar vazirligi transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamenti tashkil etildi.

2016-yil yanvar va sentyabr oylarida transportlarining barcha turlarida 11.138 tonna yuklar xavfsiz va sof holda tashildi. Bu 2015-yilga qaraganda 4.8% oshganligini ko'rsatadi.

Keyingi yillarda, davlatimizda transport sohasida o'tkazilayotga invetsitsion siyosat tufayli mamlakat YaIM (Yalpi ichki mahsulot) da transport xizmatlarining ulushi 6.4% tashkil etgan bo'lsa, 2000-yilga taqqoslanganda transport xizmatlari jami 100 barobar ortiqroqqa oshdi. O'zbekiston transport kommunikatsiyalari bo'yicha 70 dan ortiq xalqaro konvensiya, kelishuv va ikki tomonlama shartnomalar ishtirokchisi hisoblanadi. Bundan tashqari ularni integratsiyalsh bo'yicha qator xalqora dasturlarda qatnashadi. Tan olish kerakki, ushbu sohada hal qilinmagan qator kamchiliklar bo'lishiga qaramay, mamlakat ko'zlagan natijalarga erishish uchun yetarlicha salohiyatga ega. Misol qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyodagi eng yuqori avtomobil yo'llari tarmog'i zichligiga ega davlatdir.

Hulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyoning markazida strategik qulay joylashgan ancha difersifikatsiyalashgan va o'sayotgan milliy iqtisodiyotga ega. O'zbekiston mintaqada Markaziy Osiyo davlatlarining yirik jahon bozorlariga chiqishini ta'minlaydigan zamonaviy transport kommunikatsiya mahsulatlari tizimini shakillantirishda lokomotivga aylanish uchun barcha sharoit va qulayliklarga ega.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risidagi PF 5611- sonli farmoni
2. A.N. Norchaev, D.S. Umirova Turizmda transport xizmatlari. Toshkent iqtisodiyot 2020
3. <https://open-science.uz>